

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

NISHANOV DILSHOD XASANOVICH

**ITLAR DEMODEKOZINING EPIZOOTOLOGIYASI, DAVOLASH VA
OLDINI OLISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

03.00.06 - Zoologiya

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

**Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD)
on veterinary sciences**

Nishanov Dilshod Xasanovich

Itlar demodekozining epizootologiyasi, davolash va oldini olish usullarini takomillashtirish.....3

Nishanov Dilshod Xasanovich

Эпизоотология демодекоза собак, совершенствование методов лечения и профилактики.....21

Nishanov Dilshod Khasanovich

Epizootology of canine demodectosis, improvement of methods of treatment and prevention.....39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

NISHANOV DILSHOD XASANOVICH

**ITLAR DEMODEKOZINING EPIZOOTOLOGIYASI, DAVOLASH VA
OLDINI OLISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

03.00.06 - Zoologiya

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/V69 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.ssuv.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Davlatov Ravshan Berdievich
veterinariya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mavlonov Sabirjan Ibodullayevich
veterinariya fanlari doktori, professor

Nasimov Shuxrat Naimovich
veterinariya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019.V.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «14» 02 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.: (+99866) 234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14317 - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy. Tel.: (99866) 234-76-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «12» 02 kuni tarqatildi.
(2024 yil «12» 02 dagi 4 -raqamli reestr bayonnomasi).



X.B.Yunusov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
biol.f.d., professor

S.B.Eshburiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, vet.f.d., dotsent

Q.N.Norboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, vet.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlarida tinchlik va osoyishtalikni saqlash, jinoyatchilik va giyohvandlikka qarshi kurashish, noqonuniy qurol savdosini oldini olish hamda quriqlash tizimlarida kinolog mutaxassislar va xizmat itlari samarali faoliyat olib bormoqda. Ushbu maqsadda ichki ishlar va harbiy qisimlarda ko‘plab kinologiya xizmatlari va pitomniklari tashkil etilgan bo‘lib, ularda xizmat itlarini ko‘paytirish, o‘rgatish va xizmat xususiyatlarini oshirish bo‘yicha tadbirlar muntazam o‘tkazib kelinmoqda. «Itlarda parazitlar tomonidan chaqiriladigan demodekoz o‘rtacha 22-34% ni tashkil etib»¹, kasallik oqibatida ularning o‘shish va rivojlanishdan qolishi, ish faoliyatining pasayishi hamda turli asoratlarga olib kelishi bilan katta iqtisodiy zararga sabab bo‘lmoqda.

Dunyo miqyosida xizmat itlaridan foydalanishning oshib borishi, ularni saqlashda sanitariya gigiyena qoidalarining buzilishi va turli noqulay ekologik omillar ta‘sirida har-xil yuqumli, yuqumsiz va invazion kasalliklarning uchrash darajasi kengayib bormoqda. Xususan, xizmat va aholi qaramog‘idagi itlarda keng tarqalgan invazion kasalliklarning epizootologik holatini aniqlash, kasalliklarga o‘z vaqtida tashxis qo‘yish, zamonaviy davolash va qarshi kurash choralarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda kinologiya xizmati pitomniklariga qarashli itlarda turli etiologiyali kasalliklarning diagnostikasi va oldini olish borasida takomillashgan uslub va vositalarni qo‘llash natijasida ularning yuqumli, invazion va yuqumsiz patologiyalarining sezilarli darajada kamayishiga erishildi. Bugungi kunda uy hayvonlarining araxnozlar shu jumladan, itlarda demodekozni tarqalish darajasining ortishi, kasal itlarda ish qobiliyatining pasayishi hamda kasallikka qarshi diagnostik va maxsus davolash-profilaktik tadbirlarni o‘tkazishga qaratilgan sarf-xarajatlarning ko‘payishi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining «Veterinariya to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi², 2020 yil 5 iyundagi PF-6005-son «Bojxona ma‘muriyatchiligini isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida» Farmonlari va Vazirlar mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 21-son «O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo‘mitasining milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 31 martdagi PQ-187-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga

¹ Храпай, Н. Н. Демодекоз собак в условиях Черноморского побережья Краснодарского края (эпизоотология, патогенез, меры борьбы): автореф. дис. ...канд.вет.наук: 03.00.19 / Храпай Наталья Николаевна. - М., 2001. - 22 с.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi² PF-60-sonli farmoni.

doir boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V.«Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Itlar demodekozi bo'yicha xorijlik olimlardan W.B.Nutting, B.Holm, K.V.Mason, P.Sarkar, J.J.Fourie, R.S.Mueller, L.Ordeix, M.Bardagi, T.Oliver, A.P.Foster, P.Bourdeau, A.Fondati, J.D.Plant, С.Белова, О.А.Столбова, В.Н.Домацкий, Т.С.Катаева, О.А.Коротаева, Л.Л.Елистратова, Л.Н.Скосырских Н.В.Яровая va В.Б.Ястреблар tomonidan har tomonlama chuqur ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan va ushbu kasallikni qo'zg'atuvchilari, epizootologiyasi, ularga qarshi kurashish va oldini olish choralarini ishlab chiqish bo'yicha muhim ilmiy natijalarga erishilgan.

Respublikamiz sharoitida itlar demodekozi alohida kasallik sifatida maxsus o'rganilmagan, xususan, so'nggi yillarda xizmat itlariga bo'lgan talabning muntazam ortib borayotganligi, shuningdek, itlar orasida kana kasalliklarining ko'payib borayotganligiga qaramasdan, ushbu kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash, davolash hamda oldini olish choralarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari deyarli olib borilmagan.

Shu boisdan, Respublika tizim idoralari va aholi qaramog'idagi itlar orasida keng tarqalgan itlar demodekozining tashxisi, davolash va oldini olish choralarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazish zarurati mavjud.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining ilmiy ishlari rejasi hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari Ichki Ishlar boshqarmasi patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash boshqarmasi Kinologiya xizmati bo'linmalari bilan (Shartnoma №.1.24.12.2021y.) tuzilgan xo'jalik shartnomalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Samarqand, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlarida itlar demodekozining epizootologik holatini tahlil qilish, kasallikka tashxis qo'yish, davolash va profilaktik tadbirlar majmuini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

itlar demodekozini turli bioekologik sharoitlarda kechish xususiyatlarini aniqlash;

itlar demodekozini itning zoti, yoshi, jinsi va yil mavsumlari bo'yicha tarqalishini aniqlash;

itlar demodekozida kuzatiladigan klinik, mikroskopik, qonning morfologik, biokimyoviy, immunologik ko'rsatkichlari hamda patologoanatomik o'zgarishlarni aniqlash;

itlar demodekozini ertachi aniqlash, davolash va oldini olish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Respublikamizning Samarqand, Qashqadaryo va Farg‘ona viloyatlari sharoitidagi aholi qaramog‘idagi itlar hamda O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari ichki ishlar boshqarmalari patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash boshqarmalari kinologiya xizmatida saqlanayotgan turli yoshdagi itlar, ularning turli a‘zolari, ulardan yig‘ilgan kanalar, kana tuxumlari va 1% li ivermektin, sulphur malhamini, antiparazitar preparatlari va xelsivit vitamin komplekslaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning predmeti itlar demodekozining tarqalishi, sabablari, hamda takomillashtirilgan tashxis usullari, *Demodex canis* bilan spontan zararlangan itlarni zamonaviy davolash majmui, ektoparazitlarga qarshi dori vositalarining terapevtik samaradorligi, shuningdek, itlar demodekozining oldini olish usullari hisoblandi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlarda klinik, epizootologik, mikroskopik, biokimyoviy, parazitologik va statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Respublikamizning pitomniklar, volyerlar (it asrash xonasi) va aholi xonadoni sharoitlaridagi itlar demodekozining epizootologiyasi va bioekologik xususiyatlari aniqlangan;

demodekozning itlar jinsi (urg‘ochi itlarda 65 %, erkaklarida 30-35 %), zoti (Sharqiy Yevropa ovcharkalarida 14,8%, nemis ovcharkalarida 15,1%) va yil mavsumlari bo‘yicha (bahorda 35 %, yozda 21,6 %, kuzda 26,6 %, qishda 40%) tarqalish dinamikasi tadqiq etilgan;

demodekozning klinik belgilari, qonning morfologik, biokimyoviy va immunologik ko‘rsatkichlarida kuzatiladigan o‘ziga xos o‘zgarishlarni aniqlash hamda ezilgan tomchi usulida mikroskopik tekshirishlarga asoslangan tashxis usuli ishlab chiqilgan;

itlar demodekozini 1% li ivermektindan 1 ml/50 kg teri ostiga, xelsivit preparatidan 1ml/30 kg muskul orasiga ineksiya qilish, jarohatni dekan eritmasi bilan yuvish va sulphur malhamidan surtishga asoslangan davolash usuli ishlab chiqilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xizmat itlari va aholiga qarashli itlar orasida keng tarqalgan demodekozning etiologiyasi, qo‘zg‘atuvchining morfologiyasi o‘rganilib, kasallikka teri qirindisini 10% li o‘yuvchi natriy bilan ishlov berish va ezilgan tomchi usulida mikroskopik tekshirishlarga asoslangan takomillashgan tashxis usuli ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan;

itlar demodekozida kasallikka xos klinik, gematologik va immunologik o‘zgarishlar aniqlangan;

ushbu patologiyani antiparazitar dori vositalari bilan birgalikda antiallergik vitamin kompleksli davolash kompleksini qo‘llash ilmiy asoslangan;

kasallikning rivojlanish bosqichlari va qo‘zg‘atuvchining biologik xususiyatlarini inobatga olgan holda kasallikni tarqalishi va rivojlanishini oldini olishda pitomniklar, volyerlar (it asrash xonasi) va aholi xonadoni sharoitlaridagi it

asrash joylarini dezinfeksiya va dezakarizatsiya tadbirini o'tkazishga asoslangan oldini olish chora-tadbirlarini o'tkazish bo'yicha «tavsiyalar» ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tekshirishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, birlamchi ma'lumotlarga biometrik ishlov berilganligi va ularning ilmiy tahlil qilinganligi, olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, shaxsiy tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar asosida chuqur ilmiy tahlil qilinganligi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti aprotatsiya komissiyasi tomonidan ilmiy tadqiqot va birlamchi materiallarga ijobiy baho berilganligi, ilmiy ishlar natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Kinologiya markazidagi va shaxsiy aholi qaramog'idagi itlarda demodekozning epizootologik xususiyatlari, kasallikning klinik belgilari va kechish xususiyatlarining aniqlanganligi, ayrim yangi antiparazitar va vitaminli komplekslarning sinovdan o'tkazilib ularning kasal itlarning klinik ko'rsatkichlari hamda qonning morfologik, biokimyoviy va immunologik ko'rsatkichlariga ta'siri natijasida vujudga keladigan o'zgarishlarning tahlil qilinganligi va preparatlar samaradorligining nazariy va amaliy jihatdan asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati «Itlar demodekozini aniqlash, davolash va oldini olish chora-tadbirlari majmuyi»ni qo'llash orqali itlar orasida keng tarqalgan ektoparazitar kasalliklar, shu jumladan, itlarda demodekoz kasalligini o'z vaqtida aniqlash, samarali davolash va oldini olishga erishilganligi bilan, shuningdek, kasallanib sog'aygan itlar hayotchanligini oshishi, o'sish va rivojlanishining yaxshilanishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Itlar demodekozining epizootologiyasi, davolash va oldini olish usullarini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

«Itlar demodekozining diagnostikasi, davolash va oldini olish bo'yicha tavsiyalar» ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi Samarqand va Qashqadaryo viloyati Ichki Ishlar boshqarmasi patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash boshqarmasi kinologiya xizmatiga qarashli xizmat itlariga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2023-yil 17-martdagi №02/23-115-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyalarni qo'llash natijasida xizmat itlari demodekozining oldini olishda 86-92% samaradorlikka erishilgan;

itlar demodekozini davolashda 1% li ivermektin preparatini teri ostiga 1 ml/50 kg miqdorida ineksiya qilish, jarohatni dekanan eritmasi bilan yuvish va sulphur malhami surtish, allergiyaga qarshi suprastin, immun tizim faoliyatini kuchaytirish maqsadida xelsivit preparatini 3 ml.dan muskul orasiga inyeksiya qilish usuli ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2023-yil 17-martdagi

№02/23-115-son ma'lumotnomasi). Ushbu davolash usulining qo'llanilishi natijasida demodekoz bilan kasallangan itlarning to'liq sog'ayishiga erishilgan. Kasallikni davolash va oldini olish uchun sarflangan 1 so'mga xarajatlar qoplami 8,0 so'mni tashkil qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 5 ta, shu jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan 4 ta Respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 117 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Itlar demodekozining epizootologiyasi, davolash va oldini olish usullarini takomillashtirishga oid adabiyot ma'lumotlari tahlili**» deb nomlangan birinchi bobi to'rt qismga bo'lingan bo'lib, «Itlar demodekozi haqida umumiy ma'lumotlar» deb nomlangan birinchi qismida itlar demodekozining tarqalishi, hamda MDX va xorijiy mamlakat olimlarining tadqiqot natijalari keltirilgan. «Itlar demodekozining tarqalishi, epizootologiyasi va qo'zg'atuvchisining biologik xususiyatlari» deb nomlangan ikkinchi qismida itlar demodekozining biologiyasi va epizootologik ma'lumotlarni o'rganishga oid tadqiqotlar keng yoritilgan. «Itlar demodekozining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar va kasallikning asosiy klinik belgilari» deb nomlangan uchinchi qismda itlar orasida keng tarqalgan demodekozining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, xarakterli klinik belgilariga oid adabiyot ma'lumotlari bayon etilgan. «Itlar demodekozining tashhisi, davolash va oldini olish usullari» deb nomlangan to'rtinchi qismda tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlar tahlili asosida demodekoz qo'zg'atuvchilarining epizootologiyasi to'g'risida, diagnostikasi, davolash va oldini olishga doir olimlarning tadqiqot natijalari

keltirilgan.

Disertatsiyaning «**Tadqiqot materiallari va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot joyi, obyekti va uslullari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Ilmiy tadqiqot ishlari 2012-2022 yillarda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti «Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish» kafedrasida, Samarqand shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi va qator xususiy klinikalarda, O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari Ichki Ishlar boshqarmasi Patrul post xizmati va jamoat tartibini saqlash boshqarmasi Kinologiya xizmati bo'linmalari hamda Farg'ona va Samarqand viloyatlaridagi aholi qaramog'idagi demodekoz bilan spontan zararlangan itlarda, tadqiqotlarning laboratoriya tahlili qismi universitetning «Zooparazitologiya» hamda "Ichki yuqumsiz kasalliklar" kafedrasining «Gematologiya» laboratoriyalarida olib borildi. Tadqiqotlar davomida jami har xil yoshdagi 280 bosh itda shikastlangan teri va jun piyozchasining holati o'rganilgan.

Ilmiy tadqiqotlarda 3 haftalikdan 12 oylikgacha bo'lgan itlar demodekozini aniqlashda teri biopsiyasi, ekssudatni to'g'ridan-to'g'ri tekshirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotlarda yangi antigelmintiklar, vitaminli komplekslarni qo'llash asosida preparatlarning kasallikka qarshi samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlandi. Itlar demodekozini davolashda qo'llanilgan antiparazitar preparat vitaminli kompleks bilan birgalikda qo'llanilganda qonning morfo-biokimyoviy ko'rsatkichlariga ta'siri aniqlandi. Tajribalar asosida olingan raqamlar statistik ishlovdan o'tkazilib, ko'rsatkichlar orasidagi xatoliklarga Student jadvali asosida ishlov berish tartibi bayon etilgan.

Mazkur bobning «An'anaviy hamda yangi dori vositalarining tavsifi» deb nomlangan qismida xizmat va aholi qaramog'idagi demodekoz bilan kasallangan itlarni davolash uchun ishlatilgan kimyoviy dori vositalari, ya'ni antiparazitar xususiyatga ega bo'lgan ivermektin antiparazitar preparati, hayvonlarda immun tizimi, modda almashinuvi hamda kasalliklarqa qarshi kurashish qobiliyatini oshiruvchi xelsivit vitaminlar kompleksi va demodekoz natijasida yuzaga kelgan teridagi jarohatlar va patologik o'choqlarni davolash maqsadida surtish uchun ishlatilgan sulphur malhami preparatlari sinab ko'rilganligi va ularni itlar demodekozini davolash va oldini olishda qo'llash tartibi va dozalari aniqlanganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Itlar demodekozining epizootologiyasi, klinik belgilari va tashxisi**» deb nomlangan uchinchi bobida itlar demodekozini epizootologiyasi, ekstensivligi, intensivligi va diagnostikasi, davolash va oldini olishda qo'llanilgan antiparazitar preparatlarning samaradorligi tadqiq etilgan.

Xususan ushbu bobning «Itlar demodekozining tarqalishi va mintaqaviy epizootologik xususiyatlari» deb nomlangan birinchi qismida itlar demodekoziga doir epizootik jarayonlar, invaziyaning tarqalishi, kasallikning itlarning yoshi, jinsi va zotiga bog'liqlik xususiyatlari hamda ekstensivlik va intensivlik holatlari tahlil qilingan.

Dastlab, jami teri kasalligi bilan kasallangan itlar soni va kasallik turini aniqlash natijasida kinologiya pitomnigi hamda Samarqand shahri aholisiga qarashli itlar orasida teri kasalliklarining tarqalish dinamikasi aniqlangan. Natijada teri kasalliklari bilan kasallangan jami itlarning 35 foizida demodekoz, 28 foizida dermatitlar, 8 foizida ekzema, 17 foizida dermatomikoz, 12 foizida esa aralash turdagi teri kasalliklari aniqlangan.

Dispanserlash natijasida demodekoz bilan kasallangan 25 bosh xizmat itlari aniqlangan va kasallik paytida kuzatiladigan klinik-fiziologik o'zgarishlar, kasallikning shakli, terida jarohat o'choqlarining joylashish joyi, hajmining turlicha ko'rinishga ega ekanligi aniqlangan.

1-jadval.

Itlar demodekozining tarqalish dinamikasi, (%)

T/r	Hududlar	Saqlash sharoitlari	Yillar				
			2016	2017	2018	2019	2020
1	Samarqand	Pitomnik	22	23	21	23	27
		Aholi	32	31	35	32	36
		Yaylov	15	18	14	17	18
2	Farg'ona	Pitomnik	24	23	27	28	27
		Aholi	35	42	47	44	46
		Yaylov	18	17	16	18	19
3	Qashqadaryo	Pitomnik	21	24	23	25	28
		Aholi	36	38	33	35	38
		Yaylov	18	18	19	17	20
O'rtacha jami		Pitomnik	22,3	23,3	23,6	25,3	27,3
		Aholi	34,3	37	38,3	37	40
		Yaylov	17	17,7	16,3	17,3	19

Tajribadagi itlarda kasallikning itning zoti, yoshi va yashash sharoitiga bog'liq holda paydo bo'luvchi o'choqli va tarqalgangan, shuningdek, oyoqlar demodekozi (ortodemodekoz) va quloq demodekozi (otodemodekoz) turlari aniqlangan (1-jadval). Demodekoz bilan zararlanish pitomniklarda o'rtacha 24-26 % ni tashkil etgan bo'lib, shundan 2016-2020 yillar davomida kasallikning tarqalish darajasi 5 % ga oshganligi, kasallikning eng ko'p tarqalishi aholi qaramog'ida saqlanadigan uy itlarida kuzatilib, bu o'rtacha 35-37 % ni tashkil etgan. Tekshirilgan yillar davomida tarqalish darajasi 6% ga yuqori bo'lganligi aniqlangan. Yaylovlarda cho'pon itlari orasida kasallikning tarqalish darajasi aniqlanganda bu ko'rsatkich eng kam, ya'ni 17-18 % ekanligi hamda yillar davomida 2% ga ortganligi kuzatilgan. Kasallik tarqatuvchi kanalar faqatgina xo'jayin organizmida yashovchanlik xususiyatini namoyon etishi, qachonki kana xo'jayin organizmidan ajralsa juda tez nobud bo'lilishi, kasallikni chaqiruvchi

kanalarni jun follikularining ichida, ter va yog' bezlarida topish mumkinligi ilmiy asoslangan.

2-jadval.

Demodekozning itlar yoshi bo'yicha tarqalishi, (%).

T/r	Viloyatlar	Saqlash sharoiti	Itning yoshi					
			1 oylik	6 oylik	1 yoshli	2 yoshli	3 yoshli	5 yoshli
1.	Samarqand	Pitomnik	-	-	25,0	30,0	10,0	-
		Aholi	-	5,0	40,0	50,0	20,0	5,0
		Yaylov	-	-	20,0	25,0	-	-
2.	Farg'ona	Pitomnik	-	10,0	35,0	40,0	20,0	-
		Aholi	10,0	20,0	60,0	70,0	20,0	5,0
		Yaylov	-	-	15,0	35,0	10,0	-
3.	Qashqadaryo	Pitomnik	-	10,0	35,0	40,0	20,0	-
		Aholi	10,0	10,0	50,0	70,0	30,0	10,0
		Yaylov	-	-	25,0	35,0	10,0	-
O'rtacha jami	Pitomnik	-	5,0	30,0	35,0	15,0	-	
	Hovli	5,0	10,0	45,0	60,0	20,0	5,0	
	Yaylov	-	-	20,0	30,0	5,0	-	

Kasallikning tarqalish omili bo'lib, kasal itlarning sog'lom itlar bilan kontakti, ya'ni tanasining bir-biriga tegishi hisoblanishi, shu bilan birga agar ona it ushbu kasallik bilan kasallangan bo'lsa, kasallik tug'ruqdan keyingi 72 soat ichida bolalariga o'tishi haqida mulohazalar qilingan.


O'zbekiston sharoitida demodekoz itlarni saqlash va oziqlantirish sharoitining yomonligi va shuningdek, tashqi parazitlar ta'sirida paydo bo'lishi dispanserlash tadqiqotlari natijasida o'z tasdig'ini topgan.

Dissertatsiyaning «Demodekozning itning zoti, jinsi va yoshiga bog'liq holda kechish xususiyatlari» qismida itlar demodekozi hayvonning yoshiga bog'liq holda paydo bo'lishini aniqlashga qaratilgan tajriba natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, kasallikning it zotlariga bog'liq holda kechishini aniqlashga qaratilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kasallik kalta junli it zotlarida o'rtacha 55% gacha, uzun junli it zotlarida esa 45% gacha uchraydi. Kasallikning uchrashi, shuningdek, Sharqiy Yevropa ovcharkalarida 14,8%, nemis ovcharkalarida 15,1%, rotveylerlarida 14,4% gacha, shuningdek, urg'ochi jinsli itlarda 65 % gacha, erkak itlarda esa 30-35 % gachani tashkil etishi aniqlangan. Kasallik 80% gacha holatda zotli itlar orasida tarqalgan bo'lib, ayrim it zotlari, xususan skotch-teryer, sharpey, afg'on tozisi, dog, ingliz buldogi, uest-xaylend-uayt teryer, doberman kabi it zotlari demodekozga moyil zotlar hisoblanishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «Itlarda demodekozning klinik belgilari» nomli uchinchi qismida itlarda boshqa kasalliklar bilan bir qatorda parazitlar kasalliklar ham ko‘p uchrashi va ayrim paytlarda bunday kasalliklar itlarning nobud bo‘lishiga olib kelish ta’kidlangan. Ana shunday kasallik turlaridan biri demodekoz hisoblanadi. Itlar demodekozi surunkali oqimda kechuvchi araxnoz kasallik bo‘lib, junlarning to‘kilishi, terining qichishi va qalinlashuvi, progressiv oriqlash va kaxeksiya oqibatida hayvonning nobud bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

Kanalar tashqi muhit sharoitida 9 kungacha yashashi mumkin va ular 34-40 gradusli haroratda ham o‘zining harakatchanligini saqlab qolishi, kasallik bilan ko‘proq yosh hayvonlar kasallanishi qayd etilgan (3-jadval).



1-rasm. Itlar demodekozining yil mavsumlari kesimida tarqalishi, (%).

Demodekoz bilan zararlanish pitomniklarda qish oylarida o‘rtacha 29 %, bahor oylarida 19 %, yoz oylarida 11 % va kuzda esa 14,3 % ni tashkil etdi. Aholi qaramog‘ida saqlanadigan uy itlarida esa qish oylarida o‘rtacha 40 %, bahor oylarida 35 %, yoz oylarida 21,6 % va kuzda esa 26,6 % ni tashkil etdi. Yaylovlarda cho‘pon itlari orasida kasallikning tarqalish darajasi aniqlanganda bu ko‘rsatkich qish oylarida o‘rtacha 19,3 %, bahor oylarida 15 %, yoz oylarida 7,6 % va kuzda esa 12,3 % ni tashkil etishi qayd etildi (1-rasm).

Demodekozning klinik belgilari kananing ko‘payish tezligiga bog‘liq holda paydo bo‘ladi va juda ham turli xilda namoyon bo‘lishi xarakterli bo‘ldi.

Dissertatsiyaning «Itlar demodekozi paytida qonning morfologik va biokimyoviy tarkibi» deb nomlangan qismida demodekoz paytida itlardan olingan qon namunalari morfologik va biokimyoviy tekshirish natijalari 4-jadval va 6-raslarda berilgan.

Demodekozning klinik belgilari kananing ko‘payish tezligiga bog‘liq holda paydo bo‘lishi va juda turli xilda namoyon bo‘lishi izohlangan. Dastlab,

yallig‘lanish tabiatiga ega bo‘lmagan gipotrikoz alopetsiya yoki yengil eritema, komedonlarning paydo bo‘lishi va gipotrikoz kuzatiladi. Jarohatlar bir yoki bir nechta o‘choqli bo‘lishi mumkinligi ta’kidlangan. 4-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qondagi gemoglobin miqdori sog‘lom itlarda o‘rtacha $144,1 \pm 3,5$ g/l ni tashkil etgan.

3-jadval

Itlarda demodekozning klinik belgilari

T/r	Kasallik shakli	Klinik belgilari
1	O‘choqli shakli	O‘choqli alopetsiya, deskvamatsiya, eritema va kichik yarachalarning paydo bo‘lishi.
2	Tarqalgan shakli	Ko‘p o‘choqli va diffuz alopetsiya, eritema, shish, qora qo‘tirning shakllanishi, terining yorilishi, kichik yarachalarning paydo bo‘lishi, piodermiya, furunkulyoz, lixenifikatsiya, limfadenopatiya
3	Ortodemodekoz	Alopetsiya, eritema, sellyulit, furunkulyoz
4	Otodemodekoz	Quloqdan oltingugurtsimon oqma ajralishi natijasida otit rivojlanishi.



2-rasm. Demodekozning o‘choqli (aralash) shakli, it, nemis ovcharkasi, erkak, 10 oylik



3-rasm. Demodekozning tarqalgan shakli (pustulyoz), it, O‘rta Osiyo ovcharkasi, erkak, 3 yosh



4-rasm. Ortodemodekoz (papulyoz shakli), it, Angliya slanieli, urg‘ochi, 13 oylik



5-rasm. Otodemodekoz, it, labrador, urg‘ochi, 2 yosh

Demodekoz bilan kasallangan itlarda bu ko'rsatkichning patologik jarayonning chuqurlashishiga mos ravishda pasayib borishi, xususan, kasallikning qipikli shaklida o'rtacha 4,0 (140,1±3,0 g/l), pustulyoz shaklida 29,9 (114±2,0 g/l), papulyoz shaklida 52,7 (91,4±0,3 g/l) va aralash shaklida 56,3 (87,8±0,8 g/l) g/l ga pasayishi kuzatilganligi aniqlandi (P<0,01).

4-jadval.

Demodekoz bilan kasallangan itlar qonining morfologik tekshirish natijalari

Ko'rsatkichlar	Me'yor	Kasallik shakllari					
		Sog'lom	Qipikli	Pustulyoz	Papulyoz	Aralash	
Gemoglobin, g/l	120-180	144,1±3,5	140,1±3,0	114±2,0	91,4±0,3	87,8±0,8	
Eritrotsitlar, mln/mkl	5,2-8,4	7,8±1,12	7,5±0,92	6,5±1,42	5,4±0,72	4,20±0,62	
Leykotsitlar, ming/ mkl	5,5-17,5	10,3±0,95	10,8±0,45	16,8±0,75	20,8±0,55	27,8±1,60	
Bazofillar, %	0-2	1,2±0,07	1,5±0,09	1,9±0,05	2,2±0,06	2,8±0,09	
Eozinofillar, %	2-10	4,2±0,12	4,5±0,11	6,5±0,12	4,0±0,29	2,2±0,24	
Neytrof, %	mielotsit.	0	0	0	0	0	
	yosh neyt.	0	0	0	0	0	
	tayoqcha yadr.	0-3	2,6±0,25	3,0±0,12	3,6±0,20	8,6±0,30	12,2±0,42
	segment yadr.	60-77	55,2±11,4	42,2±15,3	38,6±10,3	35,2±9,1	31,2±10,6
Limfotsitlar, %	12-30	29,7±10,1	38,8±12,3	41,7±11,2	45,5±12,6	48,0±9,3	
Monotsitlar, %	3-10	5,1±0,16	4,2±0,15	3,5±0,25	2,8±0,21	2,0±0,24	
ECHT, mm/s	2-3,5	3,0±0,18	3,6±0,25	5,3±0,35	9,6±0,20	12,8±0,72	
Gematokrit, %	34,0-53,9	35,5±9,2	35,7±9,0	36,0±6,3	38,0±8,8	40,0±9,2	

Demodekoz bilan kasallangan itlarda bu ko'rsatkichning patologik jarayonning chuqurlashishiga mos ravishda pasayib borishi, xususan, kasallikning qipikli shaklida o'rtacha 0,3 (7,5±0,92 mln/mkl), pustulyoz shaklida 1,3 (6,5±1,42 mln/mkl), papulyoz shaklida 2,4 (5,4±0,72 mln/mkl) va aralash shaklida 3,6 (4,20±0,62 mln/mkl) mln/mkl ga pasayishi kuzatilgan.


Demodekoz bilan kasallangan itlarda leykotsitlar soni patologik jarayonning chuqurlashishiga mos ravishda ko'payib borishi, xususan, kasallikning qipikli shaklida o'rtacha 0,5 (10,8±0,45 ming/mkl), pustulyoz shaklida 6,5 (16,8±0,75 ming/mkl), papulyoz shaklida 10,5 (20,8±0,55 ming/mkl) va aralash shaklida 17,5 (27,8±1,60 ming/mkl) ming/mkl ga oshishi kuzatilgan.

Demodekoz bilan kasallangan itlarda leykoformulada bazofillar miqdori patologik jarayonning chuqurlashishiga mos ravishda oshib borishi, xususan, kasallikning qipikli shaklida o'rtacha 0,3 (1,5±0,09%), pustulyoz shaklida 0,7

($1,9 \pm 0,05\%$), papulyoz shaklida 1,0 ($2,2 \pm 0,06\%$) va aralash shaklida 1,6 ($2,8 \pm 0,09\%$) ga oshishi kuzatilgan.

6-rasmdan ko‘rinib turibdiki, oqsil almashinuvi ko‘rsatkichlaridan qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori sog‘lom itlarda o‘rtacha $49,22 \pm 2,80$ g/l ni tashkil etdi. Demodekoz bilan kasallangan itlarda bu ko‘rsatkichning kasallikning qipikli ($44,16 \pm 2,73$ g/l) va pustulyoz ($45,15 \pm 2,72$ g/l) shakllarida biroz pasayishi, papulyoz ($59,19 \pm 2,75$ g/l) va aralash ($61,6 \pm 3,25$ g/l) shakllarida mos ravishda, 9,97 va 12,38 g/l ga oshishi kuzatilgan.

Qondagi albuminlar miqdori demodekoz bilan kasallangan itlarda patologik jarayonning chuqurlashishiga mos ravishda pasayib borishi, xususan, uning qipikli shaklida 3,0 ($31,0 \pm 2,52$ g/l), pustulyoz shaklida 4,5 ($29,5 \pm 4,25$ g/l), papulyoz shaklida 7,5 ($26,5 \pm 4,44$ g/l) va aralash shaklida 10,0 ($24,0 \pm 2,52$ g/l) g/l gacha pasayishi kuzatilgan.



6-rasm. Demodekoz bilan kasallangan itlar qonini biokimyoviy tekshirish natijalari

Qondagi AsAT fermenti faolligi sog‘lom itlarda o‘rtacha $40,10 \pm 3,7$ Tb/l ni tashkil etdi. Demodekoz bilan kasallangan itlarda bu ko‘rsatkichning patologik jarayonning chuqurlashishi bilan bir tekisda oshib borishi, xususan, uning qipikli shaklida 4,0 ($44,1 \pm 2,22$ Tb/l.), pustulyoz shaklida 10,0 ($50,10 \pm 2,71$ Tb/l), papulyoz shaklida 14,04 ($54,14 \pm 2,75$ Tb/l) va aralash shaklida 25,2 ($65,3 \pm 3,45$ Tb/l) ga oshishi kuzatilgan.

Qondagi ALAT fermenti faolligi sog‘lom itlarda o‘rtacha $26,26 \pm 2,44$ Tb/l ni tashkil etdi. Demodekoz bilan kasallangan itlarda bu ko‘rsatkichning patologik jarayonning chuqurlashishi bilan bir tekisda oshib borishi, xususan, uning qipikli shaklida 7,5 ($33,86 \pm 3,33$ Tb/l), pustulyoz shaklida 12,56 ($38,82 \pm 3,55$ Tb/l), papulyoz shaklida 20,6 ($46,86 \pm 4,52$ Tb/l) va aralash shaklida 28,9 ($55,25 \pm 1,22$ Tb/l) ga oshishi kuzatilgan.

Qondagi ishqoriy fosfataza fermenti faolligi sogʻlom itlarda oʻrtacha $25,6 \pm 1,67$ Tb/l ni tashkil etdi. Demodekoz bilan kasallangan itlarda bu koʻrsatkichning patologik jarayonning chuqurlashishi bilan bir tekisda oshib borishi, xususan, uning qipikli shaklida $7,3$ ($32,9 \pm 1,49$ Tb/l), pustulyoz shaklida $20,3$ ($45,9 \pm 2,46$ Tb/l), papulyoz shaklida $34,3$ ($59,9 \pm 2,41$ Tb/l.) va aralash shaklida $46,7$ ($72,3 \pm 8,56$ Tb/l.) Tb/l.ga oshishi kuzatilgan.

Dissertatsiyaning «Itlar demodekozida terining patomorfologik koʻrsatkichlari» deb nomlangan qismida terini patologik oʻzgarishlari berilgan. Tadqiqotlar davomida 10 bosh turli shakldagi demodekoz bilan kasallangan itlarning terisidagi patologik oʻzgarishlari ham aniqlangan. Bunda kasal itlarning teri qoplamasidan olingan qirindilar, demodekozdan nobud boʻlgan itning terisi namunalari tekshirish asosida amalga oshirilgan.

Parazitning turli shaklidagi teriga keltirib chiqargan zarari va parazitning terida mavjudligiga javoban, teridagi jun ildizining epiteliysi donador qatlamning koʻpayishi tufayli qalinlashishi aniqlangan, bu esa jun follikulasining chiqish joyi va bursasining kengayishiga olib keldi. Ular atrofida turli xil hujayraviy tuzilmalar, limfotsitlar, gistiotsitlar va yot jismlar shaklidagi koʻp yadroli yirik hujayralardan iborat terining oʻtkir va surunkali yalligʻlanish infiltratlari uchrashi qayd etildi. Oʻrtacha ogʻirlikdagi surunkali perifollikulyar yalligʻlanish jarayonining atrof ter va yogʻ bezlariga tarqalishi bilan rivojlanganligi va ularni ham zararlaganligi kuzatilgan. Demodekozda terining kuchli qichishishi odatda tabiiy boʻlib, natijada teri butunligi buzilishi oqibatida itning terisi yuzasidagi boshqa ikkilamchi mikrofloraning kontaminatsiyasi natijasida terining butun yuzasida kuchli yalligʻlanganligi aniqlandi.

Kasallikning uzoq davom etishida muqarrar ravishda ikkilamchi mikrofloraning rivojlanishi va koʻpayishi uchun zarur sharoitlar yaratilib, bu esa yanada kuchli qichishishning rivojlanishiga sabab boʻldi. Qichish teri epiteliysi qoplaminig shikastlanishiga olib kelib, patologik jarayonni yanada ogʻirlashtirganligi anuqlandi. Natijada oʻtkir seroz-yiringli yalligʻlanish rivojlanganligi, bu esa nekrozga uchragan va deskvamatsiyalangan epiteliy hujayralari, segmentlangan granulotsitlar va demodektik oqmadan iborat boʻlgan jun piyozchasining boʻshligʻida toʻplanishi sababli jun follikulasining keskin kengayganligi kasallikka xos oʻzgarish sifatida qayd etilgan. Keyinchalik follikulalar devori yalligʻlanishning terining boshqa qatlamlar, yaʼni derma va gipodermaga tarqalishi bilan oʻchoqli absesslar paydo boʻlishi bilan lizisga uchraganligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning «**Itlarda demodekozni davolash va oldini olish usullarini takomillashtirish**» deb nomlangan toʻrtinchi bobida itlar demodekozini davolashdagi samarali usul va vositalarini ishlab chiqish boʻyicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Ushbu bobning «Itlarda demodekozning qichima shaklini kompleks usulda davolashda antiparazitar dorilarni qoʻllash samaradorligi» deb nomlangan boʻlimida itlarda demodekozni kompleks usulda davolash boʻyicha tadqiqot natijalari bayon etilgan. Davolash tajribalari uchun har biri 5 bosh itdan iborat 3 ta guruh shakllantirilgan va ularning birinchisi sogʻlom

nazorat guruhi va qolgan ikkinchi, uchinchi guruhlar tajriba guruhlar bo'lib xizmat qildi.

Birinchi (nazorat) guruhdagi itlar xo'jalikdagi mavjud oziqlantirish va parvarishlash rejimida saqlandi va ularga davolash muolajalari o'tkazilmagan.

Ikkinchi (tajriba) guruhda demodekozni davolash uchun mavjud oziqlantirish va parvarishlash rejimiga qo'shimcha ravishda haftasiga ikki martadan 1 ml/50 kg miqdorida ivermektin preparati terisi ostiga yuborildi. Mahalliy jarohatlar esa vodorod peroksidning 3% -li eritmasi bilan yuvilib va ularga oltingururt malhami surtili.

Uchinchi (tajriba) 1 % li ivermektin preparatini 1 ml/50 kg miqdorida har haftada 1 martadan jami 3 marta teri ostiga yuborildi, jarohatni dekan eritmasi bilan muntazam ravishda yuvib turilib, sulphur malhamini kuniga 2 martadan surtili, shuningdek, allergiyaga qarshi suprastin va xelsivit vitaminli kompleksidan 1 ml/30 kg miqdorida qo'llanildi.

Tajriba davomida itlarda demodekozni davolash natijalari tajriba va nazorat guruhlaridagi itlar bo'yicha doimiy tarzda taqqoslab borilgan. Barcha guruhlarda kasallikni keltirib chiqaradigan etiologik omillar bartaraf etilib, saqlash va oziqlantirish sharoitlarining bir xilliligi ta'minlangan.

«Itlarda demodekozning pustulez shaklini kompleks usulda davolashda mahalliy antiparazitar dorilarni qo'llash samaradorligi» deb nomlangan qismida demodekozning pustulyozli shaklini zamonaviy davolashga oid malumotlar keltirilgan.

5-jadval.

Itlarda demodekoz kasalligini davolash sxemasi

№	Guruhlar	Guruhdagi itlar soni	Davolash tadbirlari
1	1-nazorat guruhi	5 bosh	-
2	2-tajriba guruhi	5 bosh	Teri ostiga 1 ml/50 kg miqdorida har haftada 2 martadan ivermektin 1% li preparati ineksiya qilindi, jarohat vodorod peroksidining 3% li eritmasi bilan yuvildi va unga oltingururt malhami surtili.
3	3-tajriba guruhi	5 bosh	Har haftada bir martadan jami 3 marta teri ostiga 1 ml/50 kg miqdorida 1 % li ivermektin preparati yuborildi, jarohat muntazam ravishda dekan eritmasi bilan yuvib turildi, kuniga 2 martadan sulphur malhami surtili, allergiyaga qarshi suprastin, qo'shimcha ravishda xelsivit vitaminli kompleksi (1ml/30 kg) qo'llanildi.

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, laboratoriya tekshiruvlarida itlar demodekozini davolash muolajalari uchun har haftada bir martadan jami 3 marta

teri ostiga 1 ml/50 kg miqdorida 1 % li ivermektin preparatini yuborish, jarohat muntazam ravishda dekasan eritmasi bilan yuvib turilgan, kuniga 2 martadan sulphur malhami surtildi, allergiyaga qarshi suprastin qo'llash, qo'shimcha ravishda xelsivit vitaminli kompleksi (1 ml/30 kg) qo'llanilganda samaradorligi yuqori bo'lishi va qonning morfologik va biokimyoviy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sirlari aniqlanmagan.

Tajriba natijalari shuni ko'rsadiki, demodekoz paytida ushbu III-guruh itlarida demodekozni davolash bo'yicha davolash usuli bundan oldingi barcha variantlarga qaraganda yuqori terapevtik samarani namoyon etdi. Bunda tajribadagi barcha itlarda tana harorati, puls va nafas ko'rsatkichlarining 30 kun ichida to'liq mo'tadilashishi, shuningdek, demodekozga xos belgilarning o'rtacha 10-20 kunlik davolash jaroyonida, xususan, teridagi alopetsiya belgisining 20-kun, deskvamatsiyaning 19-kun, eritemaning 15-kun, shishning 14-kun, yaraning 10-kun va qichimaning 10-kun davomida to'liq bartaraf etilishi kuzatildi.

2-tajriba guruhidagi itlarda, yani eng yuqori terapevtik samaraga erishilgan guruhda, qondagi gemoglobin miqdorining tajriba boshidagi holatiga nisbatan o'rtacha 14,7 g/l ga ($105,5 \pm 3,3$ dan $120,2 \pm 5$ gacha), eritrotsitlarning 1,2 mln/mkl ga ($5,7 \pm 1,01$ dan $6,9 \pm 1,20$ gacha), umumiy oqsilning 16,0 g/l ga ($62,0 \pm 2,0$ dan $78,0 \pm 2,9$ gacha), albuminlarning 8,0 g/l ga ($34,5 \pm 1,36$ dan $42,5 \pm 1,3$ gacha), glyukozaning 1,8 mmol/l ga ($3,0 \pm 0,03$ dan $4,8 \pm 0,01$ gacha) oshib borishi, shuningdek, leykotsitlarning 1,8 ming/mkl ga ($12,2 \pm 0,94$ dan $10,4 \pm 0,92$ gacha), EChT ning 4,2 mm/s ga ($28,2 \pm 2,2$ dan $24,0 \pm 2,5$ gacha), gematokritning 6,0 % ga ($36,4 \pm 1,9$ dan $30,4 \pm 1,8$ gacha), umumiy billirubinning 1,0 mkmol/l ga ($4,42 \pm 0,2$ dan $3,42 \pm 0,2$ gacha), mochevinaning 0,6 mkmol/l ga ($4,1 \pm 0,28$ dan $3,5 \pm 0,28$ gacha), AsAT faolligining 10,4 Tb/l ga ($70,4 \pm 3,5$ dan $60,0 \pm 1,0$ gacha), AlAT faolligining 10,1 Tb/l ga ($49,6 \pm 0,9$ dan $39,5 \pm 0,6$ gacha), ishqoriy fosfataza faolligining 14,0 Tb/l ga ($36,0 \pm 1,2$ dan $22,0 \pm 1,8$ gacha) pasayishi ($P < 0,01$) qayd etilgan. Ushbu guruhdagi bunday sezilarli ijobiy samarani demodekozga qarshi ishlatilgan davolash vositalarining insektitsid, antitoksik, antinekrotik va antiallergik ta'sir xususiyatlari bilan izohlash mumkin.

Ishlab chiqilgan ushbu profilaktik dori vositalari majmuasini itlar demodekozini oldini olishda joriy etilishining iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lib, sarflangan 1 so'm xarajat hisobiga iqtisodiy samara 8,0 so'mni tashkil etdi.

XULOSALAR

1. Itlarning ektoparazitlari orasida demodekoz 35 %, dermatitlar 28 %, ekzemalar 8 %, dermatomikozlar 17 % va aralash turdagi teri kasalliklari 12 % ni tashkil etdi.

2. Itlar demodekozining uchrashi mavsumiy xarakterga ega bo'lib, bu ko'rsatkich kuzda -17,4 %, bahorda - 23 %, qishda - 29,4 % va yozda -13,4 % ni tashkil etdi.

3. Demodekozni itlarning individual xususiyatlariga bog'liq holda tarqalishi kasallikning epizootologiyasida muhim ahamiyat kasb etadi, xususan, kasallikning

tarqalish darajasi 6-18 oylik itlar orasida 14-36%, kalta junli it zotlarida 55%, uzun junli it zotlarida 45%, Sharqiy Yevropa ovcharkalarida 14,8%, Nemis ovcharkalarida 15,1%, rotveylerlarda 14,4% ni, shuningdek, urg'ochi itlarda 65%, erkak itlarda 30-35 % ni tashkil etdi.

4. Itlarda demodekozning klinik namoyon bo'lishiga qarab qichimali va pustulali shakllari, zararlangan o'choqlar soniga qarab esa o'choqli (mahalliy) va tarqalgan shakllari aniqlandi.

5. Itlar demodekozida qondagi gemoglobin miqdorining o'rtacha 56,3 g/l, eritrotsitlarning 3,6 mln/mkl, segment yadroli neytrofillarning 24,0 %, monotsitlarning 3,1 % gacha pasayishi, shuningdek, leykotsitlarning 17,5 ming/mkl, bazofillarning 1,6 %, tayoqcha yadroli neytrofillarning 9,6 %, limfotsitlarning 18,3 % va EChT ning 9,8 mm/s ga oshishi kuzatildi.

6. Itlar demodekozida qondagi albuminlarning miqdori o'rtacha $34,0 \pm 1,16$ g/l gacha pasayishi va umumiy oqsilning $61,6 \pm 3,25$ g/l, umumiy bilirubinning $7,77 \pm 0,33$ mkmol/l, mochevinaning $8,00 \pm 0,33$ mmol/l, AsAT fermenti faolligining $65,3 \pm 3,45$ Tb/l, AlAT fermenti faolligining $55,25 \pm 1,22$ Tb/l, ishqoriy fosfataza fermenti faolligining $72,3 \pm 8,56$ Tb/l gacha oshishi kuzatildi.

7. 1 % li ivermektin preparatini itlarda demodekozni davolash uchun har haftada bir marta, jami 3 marta teri ostiga 1 ml/50 kg miqdorida yuborish, jarohatni dekan eritmasi bilan muntazam ravishda yuvib turish, sulphur malhamini kuniga 2 martadan surtish, shuningdek, suprastin hamda xelsivit vitaminli preparatini 1 ml/30 kg miqdorida qo'llash, kasal itlarning sog'ayish muddatini 3-5 kunga qisqartirish imkonini berdi.

8. Takomillashgan qarshi kurash choralarini qo'llash natijasida itlarning demodekoz bilan kasallanish darajasini oldingi yilga nisbatan pitomnik sharoitlarida o'rtacha 13,7 %, aholi sharoitlarida 13,5 %, yaylov sharoitlarida 6,8 % ga kamaytirish imkonini berdi.

9. Itlar demodekoziga qarshi o'tkazilgan davolash tadbirlarining iqtisodiy samaradorligi sarflangan 1 so'm harajatlari qoplami 8,0 so'mni tashkil qildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.06/30.12.2019.V.12.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВЕТЕРИНАРНОЙ
МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И
БИОТЕХНОЛОГИЙ**

НИШАНОВ ДИЛШОД ХАСАНОВИЧ

**ЭПИЗООТОЛОГИЯ ДЕМОДЕКОЗА СОБАК, СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ
МЕТОДОВ ЛЕЧЕНИЯ И ПРОФИЛАКТИКИ**

03.00.06 - Зоология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ВЕТЕРИНАРНЫМ НАУКАМ**

Самарканд -2024

Тема диссертации по степени доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за № В2022.4. PhD/V69.

Диссертация доктора философии (PhD) по ветеринарным наукам выполнена в Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ssuv.uz) и в информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Давлатов Равшан Бердиевич
доктор ветеринарных наук, профессор

Официальные оппоненты: Мавлонов Сабиржан Ибодуллаевич
доктор ветеринарных наук, профессор

Насимов Шухрат Наимович
кандидат ветеринарных наук, доцент


Ведущая организация: Научно исследовательский институт ветеринарии


Защита состоится «24» 02 2024 г. в 14⁰⁰ часов на заседании научного совета DSc.06/30.12.2019.V.12.01 по присуждению ученых степеней при Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии (Адрес: 140103, город Самарканд, ул. Мирзо Улугбека, 77, Тел./факс: (99866) 234-76-86, e-mail: ssuv@edu.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре в Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии (зарегистрирована за № 14317) (Адрес: 140103, город Самарканд, ул. Мирзо Улугбека, 77., Тел./факс: (99866) 234-76-86).

Автореферат разослан «12» 02 2024 г.
(протокол рассылки № 4 от «12» 02 2024 г.)




Х.Б.Юнусов
Председатель научного совета по присуждению
учёной степени, д.биол.н, профессор


С.Б.Эшбуриев
Учёный секретарь научного совета по
присуждению учёной степени, д.вет.н, доцент


К.Н.Норбоев
Председатель научного семинара при научном
совете по присуждению учёной степени,
д.вет.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации (PhD) доктора философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В странах мира для поддержания мира и порядка в борьбе с преступностью и наркоманией, предотвращению незаконной торговли оружием, а также в системах наблюдения кинологи и служебные собаки эффективно проводят свою деятельность. На сегодняшний день создано множество кинологических служб и питомников, в которых регулярно проводятся мероприятия по разведению, дрессировке и улучшению служебных качеств собак. «Демодекоз собак составляет в среднем 22-34%»¹, нанося большой экономический ущерб из-за задержки их роста и развития, снижения работоспособности и различных осложнений.

В связи с увеличением использования служебных собак на мировом уровне, нарушением санитарно-гигиенических правил при их содержании и воздействием различных неблагоприятных факторов внешней среды увеличивается заболеваемость различными заразными, незаразными и инвазионными заболеваниями. В частности, у служебных собак и у собак на попечении населения, актуальными задачами являются определение эпизоотологического состояния инвазионных болезней, своевременная диагностика заболеваний, разработка и внедрение современных методов лечения и мер борьбы.

За последние годы в нашей Республике в результате применения усовершенствованных методов и средств диагностики и профилактики заболеваний различной этиологии у собак, принадлежащих питомникам кинологической службы, произошло значительное снижение патологий заразных, незаразных и инвазионных заболеваний. На сегодняшний день заболевания домашних питомцев клещами, в том числе демодекоза собак, вызывают такие проблемы, как увеличение степени распространенности демодекоза, снижение работоспособности больных собак, увеличение затрат, направленных на проведение диагностических и специальных лечебно-профилактических мер борьбы с заболеванием.

